

QO‘QON XONLIGIDA DINIY MANSABLAR

Qorjavov Islom Asliddin o‘g‘li*Jizzax davlat pedagogika universiteti**Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi*

+998 94 486 2211

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qo‘qon xonligi davrida mavjud bo‘lgan diniy mansablar, ularning davlat boshqaruvi va jamiyat hayotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, qozi, muftiy, shayxulislom, imom va boshqa diniy lavozimlarning vazifalari, vakolatlari hamda ularning siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga ta‘siri yoritib beriladi. Qo‘qon xonligida diniy ulamolar va mansab egalari jamiyat ma‘naviy hayotini tartibga solishda muhim rol o‘ynagani ham ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlari: *Qozixonona, unvon, fiqh, A‘lam, Qo‘qon, Oxund, Xoja Kalon, amaldor, madrasa, Sudur, Musulmon, Umarxon.*

Annotation: *This article analyzes the religious positions that existed during the period of the Kokand Khanate and examines their role in state governance and social life. It also discusses the duties, authorities, and influence of religious offices such as qadi (judge), mufti, shaykh al-Islam, imam, and other clerical positions on political and social processes. Furthermore, the article scientifically substantiates that religious scholars and officials in the Kokand Khanate played a significant role in regulating the spiritual and moral life of society.*

Keywords: *Qadi court, title, Islamic jurisprudence (fiqh), A‘lam, Kokand, Akhund, Khoja Kalon, official, madrasa, Sudur, Muslim, Umar Khan.*

Аннотация: *В данной статье анализируются религиозные должности, существовавшие в период Кокандское ханство, а также их роль в системе государственного управления и общественной жизни. Рассматриваются обязанности, полномочия и влияние таких религиозных должностей, как кади, муфтий, шейх-уль-ислам, имам и других представителей духовенства на политические и социальные процессы. Кроме того, в статье научно обосновывается, что религиозные ученые и должностные лица Кокандского ханства играли важную роль в регулировании духовной и нравственной жизни общества.*

Ключевые слова: *казийский суд, титул, исламская юриспруденция (фикх), ағлам, Коканд, ахунд, ходжа калон, должностное лицо, медресе, судур, мусульманин, Умархан.*

Kirish.

Qo‘qon xonligi XVIII asrning boshlarida bo‘linib ketgan ashtarxoniylar saltanatining bir parchasida tashkil topib, 1876 yilning fevral oyigacha mavjud edi. Bu davlat XVI–XIX asrlarda Turkistonning tarixiy-siyosiy, xo‘jalik va madaniy hayotida katta o‘rin tutgan.

Qo‘qon xonligining asoschisi Ming qabilasining boshlig‘i Shohruxbiy (vafoti 1721 yil) hisoblanadi. Xonlikda, Buxoro amirligiga o‘xshab, Amir Temur davrida shakllangan davlat boshqaruv tartibi va tuzumi mavjud edi. Qo‘qon xonligida joriy qilingan har xil unvon va mansablar, vazifa va martabalar hamda amallarni o‘rganish O‘zbekiston mustaqil davlat bo‘lgan bugungi kunda katta ahamiyat kasb etadi³⁰. Butun o‘rta asrlar musulmon davlatlarida bo‘lgani kabi Qo‘qon xonligidagi musulmon ruhoniylari ham alohida imtiyozlarga ega bo‘lgan ijtimoiy tabaqa hisoblangan. Xonlikdagi davlat boshqaruvida, ta‘lim-tarbiyada, sud ishlarida hamda jamiyat hayotining turli sohalarida ularning fikri katta ahamiyat kasb etgan. Qo‘qon xonligida quyidagi diniy va qozixona mansab, unvon hamda amallari mavjud bo‘lgan:

Shayx ul-islom. Dindorlarning eng oliy unvonlaridan bo‘lib, Umarxon tomonidan 1818-yili joriy etildi. Birinchi shayx ul-islom Ma‘sumxon To‘ra bo‘lgan. Keyinchalik Zokirxo‘ja Eshon, Sulaymonxo‘ja Eshonlarning bu unvonlarga soxib bo‘lganliklari ma‘lumdir³¹. Shayx ul-islomning asosiy vazifasi diniy masalalarda fatvo chiqarib, shariat qonunlarini to‘g‘ri talqin qilish va diniy sud ishlari ustidan nazoratni oshirish edi. Unga hatto Qozi Kalon (qozi al-quzzot) ham bo‘ysungan³².

Xo‘ja Kalon. Fiqh olimi (islom huquqshunosi)ning faxriy unvoni. Xo‘ja Kalon fiqh (islom huquqi)ni mukammal bilgan va murakkab diniy-huquqiy masalalarni tushuntirib bergan. U xon saroyida diniy maslahat beruvchi ulamolalar qatorida bo‘lgan. Ko‘pincha bunday unvonga ega shaxslar madrasa mudarrisi, mashhur fiqh va diniy ilm markazlarining yetakchi olimlari bo‘lgan³³. Umuman olganda Xo‘ja Kalon diniy tarbiya va ta‘limda muhim rol o‘ynagan.

Xalifa - O‘rinbosar. Qo‘qonda naqshbandiya, qalandariya, jaxriya tariqatlarining raxbarlari. Mashhur xalfalardan Muxammad Karim, Domullo Safo, Xazrati Soxibzoda (Miyon Xalil Soxib) va Xazrati Eshonxo‘jani tilga olish mumkin³⁴.

A‘lam. Faqih olim va shariat qoidalarining bilimdoni. A‘lam fiqh ilmini chuqur egallagan bo‘lib, qozilar chiqargan hukmlarning shariatga to‘g‘ri kelishini tekshirishda hamda

³⁰ Shodmon Vohidov. “Qo‘qon xonligidagi unvon va mansablar”. T.2019-yil. 3 - 5-betlar.

³¹ O‘sha asar. 10-bet

³² Fazliy Farg‘oniy. Umarnoma. Rusiya Fanlar Akademiyasi sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo‘limi xazinasi, S 2467 raqamli qo‘lyozma, 296-varaq.

³³ J. Rahimov. O‘zbekiston tarixini o‘rganishda arxiv manbalardan foydalanish. T. O‘qituvchi. 1995-yil. 218-bet.

³⁴ Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiy. Tarixiy jahonnamoyi. O‘zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik instituti xazinasi, 9455 raqamli qo‘lyozma, 2 jild, 331 a-331 b-varaqlar.

murakkab diniy-huquqiy masalalarda fatvo berishda muhim rol o‘ynagan. Ular odatda madrasa ta’limini mukammal tugatgan, ilmiy obro‘ga ega bo‘lgan olimlar bo‘lgan va davlatning diniy boshqaruv tizimida muhim o‘rin egallagan.

Sudur. Vaqf mulklaridan tushadigan tushumlarni hisobini qiluvchi shaxs. Shu bilan birga Sudurlar shariat masalalarini yozma ravishda qayd etish va hujjatlashtirish bilan shug‘ullangan. Sudur odatda qozilar va yuqori darajadagi ulamolarga yordam beruvchi vazifani bajarib, sud ishlarining tartibli yuritilishini ta’minlagan. Shuningdek, u fatvo va qarorlarni rasmiylashtirish, yozma hujjatlar tayyorlash bilan mashg‘ul bo‘lgan.

Oxund. Zehni o‘tkir madrasada ta’lim olgan kishi. Qo‘qon madrasalari bo‘yicha tadqiqot o‘tkazgan I. A. Alimov, „... oxund unvoni madrasada ko‘p yillar ishlab, xizmat ko‘rsatgan mudarrisga beriladigan unvon. ...“ — deb, ta’rif beradi³⁵.

O‘roq. Vaqf yerlarining xiroj va soliqlariga ma’sul kishi bo‘lib, ba’zan u madrasa va masjidlar uchun ajratilgan mol-mulkni boshqarish vazifasini ham bajarib turgan.

Muazzin. Musulmonlarni besh vaqt namozga chaqiruvchi; azon aytuvchi kishi.

Imomi Jilab. Safar va yurishlar vaqtida xon va riqob axliga xizmat qiladigan imom³⁶.

IMOM va Imom-xatib. Masjid imomi va juma namozlarda xutba o‘qib, amri ma’ruf qiladigan alloma.

Naqib. Oqsaqol, olim faqixlarning yordamchisi. Naqib, odatda, sayyidlar va xonlik ulamolarining avlodini aniqlash va tasdiqlash bilan shug‘ullangan. Ba’zan mahalliy diniy va ijtimoiy nizolarni hal qilishda vositachi bo‘lgan va diniy o‘quv muassasalari va masjidlar faoliyatini nazorat qilishga yordam bergan³⁷.

Mudarris. Madrasa ustози. Xon tomonidan tayinlanib, yillik maosh olar edi. Ba’zan xon farmoni bilan mudarrisga “tarxon” ham berilardi.

Tarakachi. Meros qoldirilgan mol-mulkni merosxo‘rlarga taqsimlab beruvchi kishi.

Qozi Kalon. Qo‘qon xonligi poytaxti va viloyatlar markazlaridagi qozilar va qizixonalar ustidan nazorat qiluvchi amaldor.

Yuqorida sanab o‘tilgan unvon va lavozimlar bilan bir qatorda yana boshqa bir muncha lavozimlar bo‘lib, Qo‘qon xoligida umumiy barcha mansab va unvonlar nufuziga qarab 3 guruhga bo‘lingan hisoblanadi. Quyida ularni guruhlarga ajratgan holda keltirib o‘taman.

➤ **Oliy darajali mansablar:** Shayxulislom, Xoja kalon, Qozi ul-kuzzot, Qozi kalon, Qozi mutloq, Qozi askar, Qozi rais, Qozi jilov, Muftiy, A’lam.

³⁵ O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

³⁶ Muhammad Yunus Toyib. Tarixi Alimquli Amirlashkar//Sh.Vohidov. Sharq yulduzi. 1996.

№1. B.218

³⁷ Nabiyev R. Из истории Кокандского ханства. Toshkent. 1973-yil. 97-98-b.

➤ **O‘rta darajali mansablar:** Oxun, Sudur, Naqib, Mudarris, Imom, Imom xatib, Imomi jilov, Muazzin, So‘fi jilov, Mutavalli, O‘roq.

➤ **Past darajali mansablar:** Muftiy askar, Tarakachi, Mirshabxona, Sadri, Mirshab, Mulozim.

Bu mansablarning barchasi Qo‘qon xonligida alohida vazifalarni bajargan bo‘lib, davlat siyosati va jamiyat hayotida alohida o‘ringa ega hisoblangan. Ba‘zi vaqtlarda esa ayrim lavozimlar xondanda nufuzliroq o‘rinda ko‘rilgan. Bulardan ko‘rinib turibdiki xonlik davlat boshqaruvida islom dinining o‘rni bag‘oyatda katta edi.

Xonlikda diniy lavozimda bo‘lganlar davlat tomonidan belgilangan maosh va xalqdan keladigan turli ehsonlar hisobidan kun ko‘rganlar. Madrasa va mozorlar o‘zlarining vaqf mulklariga ega bo‘lib, ular aynan shu mulkdan keladigan daromad orqali o‘z xizmatchilariga maosh to‘laganlar³⁸. Umuman olganda shu singari tashkilotlarga xalq tomonidan e‘tibor kuchli bo‘lgan. Maosh va vaqf tushumlari bilan bir qatorda xalq tomonidan turli ehson va xadyalar ham ulashilib turilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shodmon Vohidov. “Qo‘qon xonligidagi unvon va mansablar”. T.2019-yil. 3 - 5-betlar.
2. O‘sha asar, 10-bet.
3. Fazliy Farg‘oniy. Umarnoma. Rusiya Fanlar Akademiyasi sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo‘limi xazinasi, S 2467 raqamli qo‘lyozma, 296-varaq.
4. J. Rahimov. O‘zbekiston tarixini o‘rganishda arxiv manbalardan foydalanish. T. O‘qituvchi. 1995-yil. 218-bet.
5. Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiy. Tarixiy jahonnamoyi. O‘zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik instituti xazinasi, 9455 raqamli qo‘lyozma, 2 jild, 331 a-331 b-varaqlar.
6. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
7. Muhammad Yunus Toyib. Tarixi Alimquli Amirlashkar//Sh.Vohidov. Sharq yulduzi. 1996. №1. B.218
8. Nabiyev R. Из истории Кокандского ханства. Toshkent. 1973-yil. 97-98-b.
9. D. A‘zamova. “Qo‘qon xonligining ma‘muriy boshqaruvi va mansablari”.maqola. 2023-yil. 4-5-betlar.

³⁸ D. A‘zamova. “Qo‘qon xonligining ma‘muriy boshqaruvi va mansablari”.maqola. 2023-yil. 4-5-betlar.